



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

EXPECTED DURATION OF EDUCATION

HRM LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN

STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMIC

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION

DURATION OF EDUCATION

LIFE EXPECTANCY HEALTH

HRM HUMAN CAPITAL

HUMAN CAPITAL INDEX

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED

**TASHKENT S
OF ECONOMI
LABOUR ECO
HUMAN CAPI**

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 3-son

Volume 9, Issue 3, 2024



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
№ 3-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-soni qarori bilan ro’yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog’lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



www.laboreconomics.uz

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

| | | |
|--------------------------|---|-------|
| S.B.G'oyipnazarov | <i>Labor market transformations in developing countries</i> | 5-23 |
| A.B.Xayitov | <i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta'minlashning davlat siyosati</i> | 24-29 |
| G.F.Abdumalikova | <i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligini ta'minlash</i> | 30-37 |
| B.E.Mamaraximov | <i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida bitiruvchilarni bandligini ta'milash tizimining matematik modelini optimallashtirish</i> | 38-45 |
| J.D.Jo'rayev | <i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish</i> | 46-51 |
| T.T.Xalikov | <i>Barqaror iqtisodiy o'sishda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari</i> | 52-62 |
| T.T.Xalikov | <i>.....</i> | |
| F.X.Mamatova | <i>.....</i> | |

INSON KAPITALI

| | | |
|--------------------------|--|-------|
| K.X.Abduraxmonov | <i>Роль стратегических инвестиций в развитие человеческого капитала в условиях цифровой трансформации банковской системы Узбекистана</i> | 63-74 |
| S.S.Ismoilov | <i>.....</i> | |
| S.B.G'oyipnazarov | <i>Inson kapitalini raqamli rivojlanish holatini baholashning uslubiy asoslari</i> | 75-88 |
| T.N.Azimov | <i>.....</i> | |

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

| | | |
|--------------------------|--|---------|
| G.Q.Abduraxmonova | <i>Davlat korxonalarida inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aralash usul yordamida baholash</i> | 89-110 |
| M.Sh.Xaydarova | <i>.....</i> | |
| U.X.Abdukarimov | <i>Davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish: yangi davr talabi va imkoniyatlari</i> | 111-120 |
| M.A.Qayumova | <i>Strategies for enhancing faculty motivation: evidence-based practices for higher education institutions</i> | 121-131 |
| X.A.Ortiqov | <i>Muassasalarda yil o'rtasida shtat jadvaliga o'zgartirish kiritish tartibi</i> | 132-138 |
| G.X.Anvarova | <i>.....</i> | |
| M.A.Yusupova | <i>Bank sohasida sun'iy intellektni integratsiya qilish orqali mehnat tashkilotini transformatsiya qilish</i> | 139-152 |

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

| | | |
|--------------------------|--|---------|
| Z.Dj.Adilova | <i>Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish istiqbollari</i> | 153-162 |
| B.K.Kusekeyev | <i>Привлечения инвестиций в сферу туризма в Узбекистане: тенденции и события</i> | 163-170 |
| B.Z.Arzimatov | <i>Mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri</i> | 171-180 |
| N.O.Jumaniyozov | <i>Moliyaviy resurslar defitsiti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarni samarali boshqaruв strategiyasini takomillashtirish</i> | 181-187 |
| K.J.Sodiqxo'jayev | <i>O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga xorijiy investitsiyalar ta'siri</i> | 188-195 |
| N.S.Yuldashev | | |



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙОТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



О'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga xorijiy investitsiyalar ta'siri

Yuldashev Nodirbek Saydiburxanovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi,

Komplaens nazorat bo'lim boshlig'i

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a117

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga xorijiy investitsiyalar ta'sirini tahlil qiladi. Maqola, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy kapital oqimining ijobjiy ta'sirlari, shu jumladan ish o'rinalining yaratilishi, mahsulotlar xilmashilligining oshishi va xalqaro maydonidagi raqobatbardoshlikni oshirish masalalarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar orqali zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribalarining yurtimizga kirib kelishi va bu jarayonlarning iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy taraqqiyot, zamonaviy texnologiyalar, raqobatbardoshlik, investitsiyaviy siyosat.

ВЛИЯНИЕ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович

Академия банковского дела и финансов Республики Узбекистан,

Руководитель отдела комплаенс-контроля

Аннотация: Данная статья анализирует влияние иностранных инвестиций на устойчивое развитие экономики Узбекистана. В статье рассматриваются положительные эффекты притока иностранного капитала в экономику страны, включая создание рабочих мест, увеличение разнообразия продукции и усиление конкурентоспособности на международной арене. Также анализируется влияние иностранных инвестиций на внедрение современных технологий и управленических практик, и как это способствует повышению эффективности различных отраслей экономики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, экономическое развитие, современные технологии, конкурентоспособность, инвестиционная политика.

THE EFFECT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Yuldashev Nodirbek Saydiburkhanovich

Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan,

Head of Compliance Control Department

Abstract: This article examines the impact of foreign investments on the sustainable development of Uzbekistan's economy. The paper discusses the positive effects of foreign capital inflow into the country's economy, including job creation, increased product diversity, and enhanced international competitiveness. It also analyzes how foreign

investments facilitate the introduction of modern technologies and management practices, and how this enhances the efficiency of various economic sectors.

Keywords: foreign investments, economic development, modern technologies, competitiveness, investment policy.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish strategiyasi doirasida xorijiy investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonida mamlakatimizning o'ziga xos iqtisodiy salohiyati va geosiyosiy jozibadorligi tufayli xorijiy sarmoyalarni jalg qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu jarayonlar mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, yangi ish o'rinnari yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat iqtisodiy barqarorlikni kafolatlaydi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini ham oshiradi, chunki xorijiy investitsiyalar yurtimizga zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini olib keladi, bu esa iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirish imkonini beradi [1].

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotini rag'batlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Investitsiyaviy muhitni yaxshilash, qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish va xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish kabi amaliy chora-tadbirlar bu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi integratsiyasini chuqurlashtirishga yordam beradi va O'zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham raqobatbardosh davlatga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy salohiyatlarini maksimal darajada oshirish maqsadida xorijiy kapitalni faol jalg qilishga harakat qilmoqdalar. Ushbu adabiyotlar sharhida xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi.

Chinn va Ito o'z tadqiqotlarida Xorijiy To'g'ridan-To'g'ri Investitsiyalar (XTTI) ning makroiqtisodiy barqarorlikka ijobjiy ta'sirini ta'kidlashadi. Ular shuni ko'rsatishadiki, xorijiy kapitalning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashda va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi [2].

John H. Dunningning ekletik nazariyasi xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda institutsional muhitning muhimligini qayd etadi. Uning fikricha,

siyosiy barqarorlik, korruptsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligi va qonun ustuvorligi xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda asosiy omillar hisoblanadi [3].

Lipsey o'z tadqiqotida xorijiy investitsiyalar mahalliy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida tahlil yuritadi. Uning natijasiga ko'ra, xorijiy kompaniyalar mahalliy bozorda yangi ish o'rnlari yaratish orqali aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi va bu iqtisodiy faollikni oshiradi [4].

Borensztein, De Gregorio va Lee o'z tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar orqali texnologiya transferi va mahalliy iqtisodiyotga innovatsiyalarning kirib kelishini tahlil qilishadi. Ular shuni ko'rsatadilar, XTTI mahalliy korxonalar uchun zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi [5].

Alfaro, L. va boshqalar o'z tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar va makroiqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni o'rganib, XTTI ning mamlakatning umumiyligi iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini baholaydilar. Ular ta'kidlashicha, xorijiy investitsiyalar mamlakatning umumiyligi ishlab chiqarish quvvatini oshirishga yordam beradi va bu o'z navbatida milliy daromadlarni ko'taradi [6].

Noorbakhsh, F., Paloni, A., & Youssef, A. tadqiqotida xorijiy investitsiyalar va ta'lif sifati o'rtasidagi aloqa o'rganiladi. Ularning fikricha, xorijiy investitsiyalar mahalliy ta'lif tizimiga mablag' va resurslar kirib kelishini ta'minlaydi, bu esa ta'lif sifatining oshishiga olib keladi va yuqori malakali ishchi kuchini tayyorlash imkonini beradi [7].

Jensen, N.M. o'z ishida xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy diversifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqadi. Uning natijalariga ko'ra, XTTI mamlakatning turli iqtisodiy sohalariga kirib kelishi, mahsulot va xizmatlar tarkibini boyitadi va bu iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi[8].

Tahlil va natijalar

Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida kelgusi besh yilda 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi qabul qilingan. Strategik investitsiya loyihalari bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda muhim strategik chora-tadbirlar belgilangan:

-loyiha boshqaruvi tizimini muvofiqlashtiruvchi loyiha boshqaruvi markaziy ofisini tashkil etish;

-strategik investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va

undan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tizimida har bir strategik investitsiya loyihasi bo'yicha alohida loyiha boshqaruvchilarini tayinlash;

-loyiha boshqaruvchilarining faoliyatni samaradorligini baholash (KPI), ularni erishilgan ko'rsatkichlar asosida rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralarini qo'llash tizimini qo'llash.

Bundan tashqari, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda investitsiyaviy faollikni yanada oshirish maqsadida:

- har bir tuman va shaharning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hamda investitsiyaviy salohiyatini tahlil qilish;


-tegishli hududning "drayver sohalari" hamda mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan kelib chiqib, istiqbolli investitsiya loyihalarini ishlab chiqish;

-salohiyatli investorlarga investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilishida ko'maklashish;

-joylarda bo'sh turgan va samarasiz ishlatilayotgan obyektlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

-istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun salohiyatli investorlarni jalg qilish hamda ularga tegishli loyihami amalga oshirishning barcha bosqichida tizimli ko'maklashish chora tadbirdarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.


Xorijiy investitsiyalar chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, qonun bilan ta'qiqlanmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalari kiritish shakllari tavsifi

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash ishlari jadallashtirilmoqda.




2-rasm. Investitsiya hajmining YAIMdagi ulushi dinamikasi

Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdagi hajmini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi 50 dan ortiq huquqiy hujjatlar qabul qilindi, jumladan, O’zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi qonun, “O’zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo’ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident qarori, “O’zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo’ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihibarini boshqarishning yangi yondashuv va mehanizmlarini joriy etish to’g’risida” Prezident qarori, “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori, “O’zbekiston Respublikasining to’g’ridan-to’g’ri investitsiyalar jamg’armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Farmoni ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiyalarning so’nggi 10 yildagi o’sish sur’atlari turlicha bo’lib, oldingi yillarga nisbatan o’sish va pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda (2-rasm).

To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 37,0 trln, so’mni yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ni tashkil etdi. O’zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 15,2 trln, so’mni yoki, 2021-yilga nisbatan 74,9 % ni tashkil

etdi. Bundan tashqari, kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 60,0 trln, so‘mni yoki, 2021-yilga nisbatan 100,7 % o‘sish qayd etildi.



3-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, 2022-yil

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilayotgan davrda asosiy kapitalga investitsiyalar YAIM o'sish sur'atlarining o'sishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaganligidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, olingen natijalar respublika iqtisodiyotining o'sishi, asosan, xorijiy investitsiyalar hisobiga emas, balki ko'proq ichki investitsiyalar hisobiga kechayotganligi bilan belgilanadi.

Jumladan, asosiy kapitalga investitsiyalar 6 marta oshgan sharoitda mamlakat YAIM atigi uch baravarga ko'paydi. Bu esa investitsiyalardan foydalanish samaradorligining pastligidan dalolat beradi. Asosiy kapitalga ichki investitsiyalardan samarasiz foydalanish esa ma'lumki, xorijiy investorlarni cheklaydi. Taqqoslash uchun: Germaniya, Gretsiya, Janubiy Koreya, Armaniston va Ukraina kabi mamlakatlarda ushbu nisbat YAIM ning asosiy kapitalga investitsiyalar o'sishiga qaraganda ilgarilab boruvchi o'sishini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Xorijiy investitsiyalar mamlakatdagi ish o'rinalarini oshirishirib kambag'allik darajasini qisqartirishga, yashash sharoitlarini yaxshilashga, mahsulotlar xilma xilligini oshirishga, ichki bozorni to'yintirib eksportni oshirishga, valyuta oqimlarini krib kelishini oshirishga, davlat budgetini

mablag’lar bilan to’ldirishga yordam beradi. Bu esa mamlakatdagi ish o’rinlarini ko’paytirib, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi kenglikni oshiradi. Natijada esa, mamlakat iqtisodiyotni kuchaytirib dunyo reytinglarida o’zizni pozitsiyasini mustahkamlashga erishiladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtishda bir qancha istiqbolli yo’nalishlardan samarali foydalanib kelinmoqda (5-rasm).

| Xorijiy investitsiyalarни jalb qilishni faollashtirish yo’nalishlari | Qabul qilish sharoitlarini yaxshilash |
|--|---|
| | Marketing va reklama bilan ishlash |
| | Innovatsion xizmatlarni takomillashtirish |
| | Texnologik rivojlantirish |
| | Ishonchli moliyaviy xizmatlarni taqdim etish |
| | Energiya va ekologik muammolarni hal qilish |
| | Sifatli kadrlarni jalb etish |
| | Innovatsion proyektlarga investitsiya qilish |
| | Xalqaro ish birliklari va konsortsiumlar tuzish |
| | Xalqaro bozorlarga kirish yoki o’zlashtirish |
| | Ommaviy xizmatlarga e’tibor berish |
| | Ko’p to’lovli ish o’rinlarini yaratish |
| | Xalqaro standartlarga rioya qilish |
| | Ommaviy hamkorliklar tuzish |
| | Sifatli xizmat yoki mahsulot ishlab chiqarish |

5-rasm. Xorijiy investitsiyalarни jalb etishni faollashtirishning istiqbolli yo’nalishlari

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Bugungi kunda O’zbekistonda xorijiy investitsiyalar jalb qilishda ularning ustidan monitoringni amalga oshirish dolzarb yo’nalishlardan hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar monitoringi, bir mamlakat yoki hududning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qiladigan xorijiy investitsiyalarni kuzatish, tahlil qilish va nazorat qilish jarayonidir. Bu, mamlakatning xorijiy investitsiyalar bo'yicha siyosatini shakllantirish, investorlarni jalb qiluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va xorijiy investitsiyalar bo'yicha xabarlarni yig'ishda yordam beradi. Xorijiy investitsiyalar monitoringi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qiladigan xorijiy investitsiyalar tavsiy va tahlilini o’rnatish, investitsiya jalb qiluvchilari va investitsiya qilish to’g’risida statistik ma'lumotlarni yig'ish, siyosatdagi o’zgarishlarini kuzatish, investitsiya jalb qilishni oshirishga yordam beruvchi ko’rsatkichlarni aniqlash va xavfsizlikni ta'minlashni o’z ichiga oladi. Monitoring jarayonlarini osonlashtirishda yuqorida keltirilgan zamонавиј тeхnologiyalardan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
2. Chinn, M.D. & Ito, H. (2006). "What matters for financial development? Capital controls, institutions, and interactions," *Journal of Development Economics*, vol. 81, no. 1, pp. 163-192.
3. Dunning, J.H. (2001). "The Eclectic (OLI) Paradigm of International Production: Past, Present, and Future," *International Journal of the Economics of Business*, vol. 8, no. 2, pp. 173-190.
4. Lipsey, R.E. (2002). "Home and Host Country Effects of FDI," NBER Working Paper No. 9293.
5. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J-W. (1998). "How does foreign direct investment affect economic growth?" *Journal of International Economics*, vol. 45, no. 1, pp. 115-135.
6. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). "FDI and economic growth: The role of local financial markets," *Journal of International Economics*, vol. 64, no. 1, pp. 89-112.
7. Noorbakhsh, F., Paloni, A., & Youssef, A. (2001). "Human Capital and FDI Inflows to Developing Countries: New Empirical Evidence," *World Development*, vol. 29, no. 9, pp. 1593-1610.
8. Jensen, N.M. (2008). "Nation-States and the Multinational Corporation: A Political Economy of Foreign Direct Investment," *Princeton University Press*.
9. Thirlwall A.P. The Balance of Payments Constraint as an Explanation of International Growth Rate Differences // Banca Nazionale del Lavoro Quarterly Review. 1979. Vol. 32. Iss. 128. P. 45-53.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiymaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz